



Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences

Journal home page:
<http://ijournal.uz/index.php/jartes>



Journal of Academic Research and
Trends in Educational Sciences
(JARTES)

VOL. 2, ISSUE 1

ISSN 2181-2675

[www.ijournal.uz](http://ijournal.uz)

THE CHOICE OF TOYS FOR EARLY-AGED CHILDREN AND THEIR IMPACT ON THEIR DEVELOPMENT

Shahnoza Najmuddinova¹

Kokand University

KEYWORDS

Psyche, stress, fear, material, motive, potential, dissonance, detailing, imagination, society, individual

ABSTRACT

In this article, the impact of modern toys on the child's psyche, the toys that have a negative effect on children and the factors that put the child in a state of stress and fear are highlighted through research and questionnaires, and the child's psyche is set in a positive direction. recommendations for change have been made.

2181-2675/© 2024 in XALQARO TADQIQOT LLC.

DOI: **10.5281/zenodo.12539317**

This is an open access article under the Attribution 4.0 International(CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

¹ Student of the 2nd stage of preschool education at Kokand University, Fergana, Uzbekistan

ERTA YOSHDAGI BOLALAR UCHUN O'YINCHOQLARNI TANLASH VA ULARNING RIVOJLANISHIGA TA'SIRI

KALIT SO'ZLAR/**КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА:**

Psixika, stress, qo'rquv,
material, motiv, potensial,
dissonans, detailing,
tasavvur, jamiyat, individ

ANNOTATSIYA/АННОТАЦИЯ

Ushbu maqolada zamonaviy o'yinchoqlarning bola psixikasiga ta'siri, bolalarga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi o'yinchoqlar va bolani stress, qo'rquv holatiga tushiruvchi omillar tadqiqot va so'rovnomalar orqali yoritib berilgan hamda bola psixikasini ijobiy tomonga o'zgartirish uchun tavsiyalar berib o'tilgan.

KIRISH

Bolalarning hissiy dunyosining shakillanishini o'yinchoqlarsiz tasavvur qilish qiyin. Ular bolaga o'z his-tuyg'ularini aks ettirishiga va dunyoni kashf etishi, hamda o'zini anglab yetishiga imkon beradi. Bolalarni o'yinlarsiz tasavvur qilishning iloji yo'qligi bois hech qanday o'yin ham o'yinchoqlarsiz tashkil etilmaydi. O'yin va o'yinchoqlar bolaning atrof-muhit haqidagi fikirlarini aniqlashtirishga, aks ettirishga va uning tasavvurini rivojlantirishga yordam beradi. O'yin, bolalarning mustaqil faoliyati bolani tarbiyalash va o'qitish jarayonida shakillanganligi, ularning inson faoliyati tajribasini o'rganishiga hissa qo'shami. O'yin bolalar hayotini tashkil etish shakli sifatida juda muhim ro'l tutadi, chunki u bolaning ruhiyatini, psixikasini va uning shaxsiyatini rivojlantiradi. O'yin va o'yinchoq ajralmas ya'ni bir biriga uzviy bog'liqdir. O'yinchoq o'yinni hayotga olib kelishi mumkin, va o'yin ba'zan o'yinchoqni rivojlantirishni talab qiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Bugungi kunda bolalar uchun ko'plab rivojlantiruvchi ta'limiy o'yinchoqlarning yangi avlodlari yaratila boshlangani hech kimga sir emas. Qadimda o'yinchoqlar asosan harakatli va tarbiyalovchi xususiyatlarga ega bo'lgan bo'lsa, endilikda rivojlantiruvchi ta'limiy o'yinchoqlar avlodri rivojlandi va ota-onalarning, ta'lim xodimlarining ishonchiga kira oldi. Sababi rivojlantiruvchi ta'limiy o'yinchoqlar bolaga kerakli ko'nikmalarni o'rgatishning ajoyib usuli. Bunday o'yinchoqlar qatoridan bolalarning ijodkorligini tarbiyalovchi o'yinchoqlar ham borki, ilmiy tadqiqotimiz davomida ayni shu turdagilari o'yinchoqlarning ahamiyati, ularning turlarini o'rganishga e'tibor qaratdik. Rivojlantiruvchi ta'lim o'yinchoqlarining obrazli va mantiqiy fikrlashni shakllantirishiga ishlab chiquvchilar katta ahamiyat berishadi. Shuningdek, bolalarni belgilangan maqsadga yo'naltirishga, muloqotga o'rgatishga va o'zini namoyon qilish uchun imkon berishga o'rgatish rivojlantiruvchi ta'limiy o'yinchoqlarning qadriyati hisoblanadi. Biroq, hamma vaqt ham ota-onalar va pedagoglar bolaning yosh xususiyati, individual qobiliyatlaridan kelib chiqib yondashmaydi. Ba'zilar, ma'lum bir yoshgacha bola belgilangan bilimlarni egallashi kerak deb hisoblassa, ba'zilari "majburiy o'qitish" shablonida bolani rivojlantiruvchi ta'limiy o'yinchoqlar bilan o'ynashga undaydi. Biroq yosh xususiyati va individual qobiliyatlar

hisobga olinmaydi.

NATIJALAR

Olimlar besh-yetti yoshgacha bo'lgan davrda barcha bolalar ajoyib xotiraga ega ekanligini isbotladilar. Yangi ma'lumotni qabul qilish qobiliyati noyobdir va yangi narsalarni o'rghanish istagi juda katta. Natijada, ishonch bilan aytish mumkinki, insonning butun hayoti u birinchi besh-yetti yil ichida egallagan bilim va ko'nikmalariga asoslanadi. Shu nuqtai nazardan, maktabgacha ta'lim tashkiloti pedagoglari ushbu davrga iloji boricha mas'uliyat bilan yondashishlari va bolaning har tomonlama rivojlanishiga hissa qo'shishlari kerak. Albatta, har bir yoshning o'ziga xos xususiyatlari bor. Hech kimga sir emaski, barcha otanonalar farzandlari tezroq gapirishini, tezroq ta'limiy jarayonga kirishishini orzu qilishadi, shuning uchun yosh otalar va onalarning birinchi savoli "Nutqni qanday va qachon rivojlantirish kerak?" -bo'ladi. Ikki yoshgacha bola o'z tanasini, atrofdagilarni idrok etishni va bilishni, hissiyotlarni ifoda etishni, makonni his qilishni, yaqinlarini tanib olishni, ob'ektlarni harakatlantirishni o'rghanadi.

Interaktiv o'yinchoqlar. Rivojlantiruvchi ta'limiy o'yinchoqlarning orasida interaktiv o'yinchoqlar juda mashhur. Qo'shiqlar kuylash, suhbatlashish va hikoyalar aytib bera oladigan o'yinchoqlar nutqning rivojlanishiga foydali ta'sir ko'rsatadi. Shunisi e'tiborga loyiqliki, so'zlarni idrok etish va tushunishni rivojlantiradigan o'yinchoqlar bolaning ijodiy qobiliyatlarini erta yoshdan tarbiyalaydi.

Piramidalar. Mantiqiy rivojlantirish uchun qulay bo'lgan piramidadagi halqalarni bola nafaqat o'z o'rniga taqibgina qolmay, balki ularni to'g'ri tartibda joylashtirishi kerak. Piramidalar plastik, yog'och yoki matodan tayyorlanishi mumkin. Piramidalarni o'ynash uchun tavsiya etilgan yosh 1-3 yosh. Ushbu yoshda nisbatlar, shakl va rang tushunchalari shakllanadi. Bundan tashqari, ular nutqida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun tavsiya etiladi, chunki bu jarayonda mayda motorikalar rivojlanadi. Sensomotor koordinatsiyani shakllantirishga, «qo'llar va ko'zlar» harakatini muvofiqlashtirishga yordamlashadi. O'yinchoqning tarkibiy qismlaridan foydalanim, bolani shakl, rang va hajm haqidagi asosiy tushunchalar bilan tanishtirish mumkin.

Pazllar. Qat'iylik va diqqatlilik sifatlari bolada jumboqlarni echish orqali rivojlantiriladi. Rasmlarni yig'ish ijodiy va mantiqiy fikrlashni rivojlantiradi. Mozaikalarni o'z o'rniga qo'yishda bola ijod qiladi, boshqacha yo'llarini kashf qiladi.

Klassik kublar. Bu turdag'i o'yinchoqlar tayyorlov guruhidagi bolalarni intellektual rivojlantirish uchun katta yordam berishi mumkin. Harfli yoki raqamli kublar bolalarni hatto maktabga tayyorgarlik ko'rishida ham yordam beradi. Bunday o'yinchoqlarning asosiy turlari - bu idishlar va ramkalar. O'yinchoqning tarkibiy qismlarini birlashtirar ekan, bola buyumlarning hajmi va shaklini solishtirishni, qo'l va ko'z harakatlarini boshqarishni o'rghanadi. Bu o'yinchoqlar, shuningdek, fikrlash va tasavvur qobiliyatini rivojlantiradi.

Stolda o'ynaladigan o'yinlar. Bunday o'yinchoqlar barmoq bilan ishslashni talab etgani bois, mayda motorika rivojlanadi, nutqiy jarayon yaxshilanadi, qo'llar yozuv ko'nikmalariga tez o'rghanadi. Montessori o'yinchoqlari. Montessori metodikasida shunday

jihozlar borki, bola mustaqil ravishda shug'ullanib, yangi bilim hosil qiladi. Masalan, har xil shakldagi silindrлarni o'z hajmiga mos joylarga joylashtirish. Kuzatishlardan ma'lum bo'ldiki, tarbiyachi ko'rsatmasi bilan topshiriqni bajargan bolalar ertasiga ushbu vazifani qaytadan ko'rsatib berishda xatolikka yo'l qo'ydi, mustaqil bajargan bolalar silindrлarni deyarli bexato bajardi. Mustaqil o'zlashtirish jarayonida ko'proq vaqt talab qilinishi mumkin, lekin ular olgan bilimlarini xotiralarida mustahkam saqlab qoladilar. Konstruktorlar. Bolaning yoshi 3-6 yosh oralig'ida bo'lganida, u ijodkorlikni rivojlantirish uchun muhitga ega bo'lishi kerak. Bola sodda jumboqlarni bajonidil yechadi, turli xil kartochkalar, konstruktorlar bilan mashg'ul bo'ladi.

Rasm, applikatsiya va modellashtirishga o'rgatuvchi o'yinchoqlar. Ayni turdagи o'yinchoqlarni ijodiy qobiliyatlari rivojlangan bolalar o'ynashga moyillik bildirishadi. Rivojlantiruvchi o'yinchoqlar bolaning qaysi yo'nalishga moyilligini aniqlay oladi. Agar u konstruktorlarni qalamdan afzal ko'rsa, uni san'at mакtabiga yuborish qiyin. Pedagogikada individuallik prinsipi beba ho qadriyat sifatida tan olinadi. Maktabgacha ta'lrim tashkilotlarida tarbiyalanuvchining moyilligiga qanchalik ehtiyyotkorlik bilan munosabatda bo'lishsa, ularning o'z qiziqishlariga yo'nalishlari shunchalik yuqori bo'ladi. Demak, bu bolalarning o'z qobiliyatlari va qiziqishlariga ishonchni keltirib chiqaradi.

MUHOKAMA

Zamonaviy ta'limi rivojlantiruvchi o'quv o'yinchoqlari tarbiyalanuvchilarga o'zi uchun qiziqarli bo'lgan narsalarni aniqlashga imkon beradi. "Bolaning eng birinchi o'qituvchisi o'yinchoqlardir" degan iborani shu o'rinda eslash maqsadga muvofiq. Hamma bola ham o'yinchoqni, ular bilan o'ynashni yaxshi ko'radi. Aslida, o'yinchoq nafaqat bolani ovuntirishga, balki, uning jismoniy va ma'naviy kamolotiga, tafakkurining rivojlanishiga xizmat qiladi. Qurish-yasashga mo'ljallangan kubikli konstruktorlar tayanch-harakat a'zolari va mayda motorikani rivojlanishiga yordam beradi.

- Qo'l va barmoq qanchalik ko'p ishlasa nutq shunchalik yaxshi bo'ladi.
- Turli qismlarni yig'ish bolani mantiqiy fikrlashga o'rgatadi.
- Konstruktorlarni yig'ish jarayonida bola diqqat-e'tiborli, sabrli bo'lishga
- Bu o'yinda bola ijodiy fikrlashni o'rganadi, qaysi shakldan keyin qaysinisini qo'yishni o'ylash uning tasavvuri kengayishiga xizmat qiladi. Narsa-buyumlar bilan o'ynaganda bola biror yangi predmet va uning o'ziga xosligini o'rganadi. Nutqni rivojlantiruvchi o'ynlarda esa bolalar xalq og'zaki ijodi bilan tanishadilar, badiiy adabiyot namunalaridan she'r yodlaydilar, hikoya tuzadilar. Bular natijasida esa bolalarning so'z boyligi oshadi, o'z fikrlarini bemalol bayon qilishni o'rganadi. Ta'limi o'ynlarda bola rang, harf, sonlarni o'rganadi. Dunyo haqidagi dastlabki bilimlarni o'rganadi. Hamma ota-onा farzandini o'yinchoq bilan xursand qilishni xohlaydi. O'yinchoqlar bolalarning ham jonu dili. Aslida, o'yinchoq nafaqat bolani ovuntirishga, balki, uning jismoniy va ma'naviy kamolotiga, tafakkurining o'sishiga xizmat qiladi. Shu ma'noda ishlab chiqaruvchilar bolalarni har tomonlama rivojlantirishni nazarda tutadigan turli yo'nalishdagi o'yinchoqlarni taklif etishadi.

1. Qurish yasashga mo'ljallangan kubikli konstruktorlar:

- tayanch-harakat a'zolari va mayda motorikani rivojlanishiga yordam beradi;
- qo'l va barmoq qanchalik ko'p ishlasa, nutq shunchalik yaxshi rivojlanadi;
- turli qismlarni yig'ish bolani mantiqiy fikrlashga o'rgatadi;
- konstruktorlarni yig'ish jarayonida bola diqat-e'tiborli, sabrli bo'lishga o'rganadi.

Bu o'yinda bola ijodiy fikrlashni o'rganadi, qaysi shakldan keyin qaysinisini qo'yishni o'ylash uning tasavvuri kengayishiga xizmat qiladi.

2. Ta'limiy o'yinlar bolaga qanday yordam beradi? MTTda asosan 3 xil ta'limiy o'yinlardan foydalaniladi:

- buyumlar bilan o'ynash;
- kartochkalar;

- nutqni o'stiruvchi o'yinlar. Narsa-buyumlar bilan o'ynaganda bola biror yangi predmet va uning o'ziga xosligini o'rganadi. Nutqni rivojlantiruvchi o'yinlarda esa bolalar xalq og'zaki ijodi bilan tanishadilar, badiiy adabiyot namunalaridan she'r yodlaydilar, hikoya tuzadilar. Bular natijasida esa bolalarning so'z boyligi oshadi, o'z fikrlarini bemalol bayon qilish ko'nikmasi shakllanadi. Ta'limiy o'yinlarda bola rang, harf, sonlarni o'rganadi. Har bir bolada "Do'kon", "Kasalxona", "Sayohat" kabi rolli o'zin o'ynash uchun kerakli o'yinchoqlar bo'lishi maqsadga muvofiqdir. Bu kabi o'yinlarda bolalar kattalarga taqlid qilishni, jamoa bilan o'ynashni o'rganadilar. Xo'sh, necha yoshda qanday o'yinchoqlarni tanlagan ma'qul? 3 yosh uchun: turli o'lchamdagи to'plar, kubiklar, uch g'ildirakli velosiped, plastilin, doska va rangli bo'rlar. Rangli qog'oz va qalamlar, flomaster va bo'yoqlar, bog'dorchilik o'yinchoqlari; musiqiy uskunalar (doiracha, qo'ng'iroq,) oddiy mozaika suratlari; konstruktor o'yinlar (yig'ish, to'plash, qurish). Qiz bolalar uchun aksessuarlari bor qo'g'irchoq, o'g'il bolalar uchun mashina va askarlar.

Kichik yoshdagi bolaning eslab qolish qobiliyatini kuchli bo'ladi. Bolalikda his-hayajon bilan idrok etilgan narsalar bir umr esda qoladi. Shuning uchun ham bolaga o'yinchoq olib berishda e'tiborliroq bo'lish lozim. Qiz bolalar uchun yumshoq o'yinchoqlar, yoki bo'lmasam o'zbek milliyigli aks ettirilgan qo'g'irchoqlar sovg'a qilish tavsiya etiladi. O'yinchoqlar xilma-xilligi orasida rivojlanishga yordam berishning o'rniga, psixikaning vayron bo'lishiga va tarbiya buzilishiga olib keladigan o'yinchoqlar ham mavjud. Masalan, qo'rinchli kiborglar, yuzlari bo'yalgan, yarim-yalang'och qo'g'irchoqlar, chandiqlari va so'gallari bo'lgan xunuk hayvonlar kabi o'yinchoqlar shular jumlasidandir. Bu o'yinchoqlarni olib berish umuman tavsiya etilmaydi. Og'il bolalarga esa asosan o'zbek xalq ertaklari qahramonlari va ularning tabiatiga mos bo'lgan o'yinchoqlarni sovg'a qilish maqsadga muvofiq. Shuningdek, o'yinchoqning rangi, tuzilishiga ham e'tibor qaratish kerak. Och rangdagi o'yinchoqlar bolaning kayfiyatini ko'tarishga, uning yaxshi va xotirjam uxlashiga yordam beradi. O'yinchoq — bola hayotining dastlabki davrlaridan boshlab ularga yo'ldosh quvonch manbayi. o'yinchoq bolaning o'ynashi uchun mo'ljallangan va boshqa maqsadlarda foydalanilmaydigan buyum hisoblanadi. Xalq pedagogikasida o'yinchoqlaming butun bir tizimi ishlab chiqilgan bo'lib, bular bolaning sensor qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan.

O'yinchoqlar bolalarning nutqiy faolligini uyg'otadi, lug'at boyligini oshiradi, ularda tahlil qilish, yaxlit holatga keltirish, umumlashtirish, taqqoslash, tavsiflash, diqqatni jamlash kabi qobiliyatlarni rivojlantiradi. O'yinchoqlar bolalarda ma'naviy-axloqiy tuyg'ulami (mehribonlik, avaylash, e'tiborlilik) shakllantiradi, atrof-muhitga ijobiy munosabatni uyg'otadi. O'yinchoqlar tanlashda bolaning yosh va individual xususiyatlari, qiziqishlari, istaklari hisobga olinadi. Maqsadga qaratilgan bunday yondashuv o'yinchoq tanlashga bo'lgan talabni yanada oshiradi. Asosan, pedagogik, gigiyenik, badiiy talab orqali o'yinchoq tanlanadi. O'yinchoq, o'yinning alohida predmeti, madaniyatning namoyon bo'lishidan biri sifatida, jamiyatning tarixiy rivojlanishi davrida paydo bo'ldi. Ibtidoiy kommunal tizimning dastlabki bosqichlarida o'yinchoqlar yo'q edi. Bu bolalarga kattalarning oddiy ishlarida qatnashishga imkon beradigan oddiy vositalar va mehnat shakllari bilan bog'liq edi: qutulish mumkin bo'lgan o'simliklar, ildizlar, baliqlarni yig'ish, mayda hayvonlar va qushlarni ovlash va dehqonchilik bilan shug'ullanish. Ishlab chiqarishning yuqori shakllariga o'tish bilan mehnat taqsimoti, uning turli shakllarida bolalarning ishtiroti tabiatini o'zgardi. Vazifa bolalarga murakkab vositalarni iloji boricha erta o'rganishni o'rgatish uchun paydo bo'ldi, ular muhimroq narsalar bilan tanishtirish uchun. Buning uchun asbobning qisqartirilgan nusxasi yaratildi. Ularning yordami bilan bolalar haqiqiy hayotga yaqin sharoitlarda mashq qilishdi.

3-6 yosh uchun: koptoklar, plastilin, kubiklar, kasbga oid o'yinchoqlar, shifokorlik, qurilish, duradgorlik asboblari, yirik avto o'yinchoqlar (yuk mashinasi, vagon, samolyot, poezd), qalam, flomaster, akvarel, yelim, qog'ozlar, rasm bo'yaydigan kitoblar, uycha, harflar to'plami. Xulosa qilib aytganda, o'yinchoqlarning bola hayotida tutgan o'rni beqiyos va u kichkintoyning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantiruvchi bebeho vosita sifatida tan olinadi. O'yinchoqlar bola hayotida, uning jismoniy, ruhiy, aqliy kamolotga yetishida muhim vositalardan biri hisoblanadi. O'yinchoqlar vositasida o'ynaladigan o'yinlar orqali bolalarda tafakkur, tasavvur, xotira, diqqat kabi barcha psixik jarayonlar rivojlanadi va atrof-muhit haqidagi bilimi yanada kengayib boradi.

XULOSA

Men bu tadqiqot natijalaridan hulosa qilgan holda o'yinchoq turli xil zaharli moddalardan tayyrlangan bo'lmasligi, o'tkir hidsiz va bolaning qiziqishi va yoshiga mos kelishi kerak deb o'ylayman. O'yinchoq olishda tavsiyalar: Bola o'yinchoqni qisimlarga ajrata olishi va yig'a olishi kerak. Bolaning qiziqishlariga mos kelishi, o'yinchoq qo'rquv, jirkanish, tajovuz va shu kabi tuyg'ularni yuzaga keltirmasligi kerak. Eng muhimi bir yoshgacha bo'lgan chaqaloqlarga o'yinchoq harid qilayotganda chaqaloqni hali katta hajmli narsalar bilan o'ynay olmasligini hisobga olish kerak. Go'daklik davrida individda hayotni "so'rish" yo'li bilan o'rganish ustunlik qiladi shunday ekan turli hil bezaklarga va zararli moddalarga ega bo'lgan o'yinchoqlarni harid qilish tavsiya berilmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Vigotskiy, O'yin va uning bolaning psixologik rivojlanishidagi roli. L.S.Vigotskiy. Psixologiya masalalari. 2006yil.

2. A.N. Leontyev. Psixologiya masalalari. 2006 yil.
3. Savka L. Zamonaviy o'yinchoqlar dunyosidagi bolalar va kattalar. Maktabgacha ta'lim. 2000 yil.
4. Muxina V.S. O'yinchoq bolaning psixologik rivojlanishining vositasi sifatida. Psixologik masalalar. 1988 yil.
5. T.P.Avdulova. O'yin psixologiyasi. 2018yil.
6. Kiselev N. Bolalar o'yinlari va o'yinchoqlarini psixologik-pedagogik ekspertiza va baholash mezonlarini joriy etish to'g'risida. Maktabgacha ta'lim. 1999 yil.
7. Smirnova E. O'yinchoqlar: ularning sifatini qanday baholash kerak. Maktabgacha ta'lim. 2005 yil.